MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI ZARARLI AXBOROTLARDAN HIMOYALASHDA QADRIYATLAR ASOSIDA YONDASHUVNING PEDAGOGIK ASOSLARI.

Urinova RushanaTursinniyozovna
Osiyo texnologiyalar universiteti magistranti
E-mail: urinovarushana@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23120987

Anotatsiya: Bugungi kunda globalizatsiya jarayoni ta'lim sohasida ham o'z aksini topmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalar va Chet tillarini o'rganish, nafaqat akademik muvaffaqiyat uchun, balki professional faoliyatda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning axborot makonida duch kelayotgan zararli axborotlardan himoyalanishi, bu jarayonda qadriyatlar asosidagi pedagogik yondashuvlarning o'rni, usullari va samaradorligi tahlil qilingan. Muallif tomonidan mavjud ilmiy-nazariy manbalar asosida himoya mexanizmlarining pedagogik asoslari yoritilgan va amaliy tavsiyalar berilgan

Annotation: Today, the process of globalization is also reflected in the field of education. Modern information technologies and the study of foreign languages are important not only for academic success, but also for professional activities. This article analyzes the protection of children in preschool educational organizations from harmful information encountered in the information space, the role, methods and effectiveness of value-based pedagogical approaches in this process. The author, based on available scientific and theoretical sources, sheds light on the pedagogical foundations of protective mechanisms and gives practical recommendations

Аннотация: Сегодня процесс глобализации находит свое отражение и в сфере образования. Современные информационные технологии и изучение иностранных языков важны не только для успешной учебы, но и в профессиональной деятельности. В статье анализируется защита дошкольников от вредоносной информации, встречающейся в информационном пространстве, роль, методы и эффективность ценностно-педагогических подходов в этом процессе. Автор на основе имеющихся научно-теоретических источников освещает педагогические основы защитных механизмов и дает практические рекомендации.

Kalit so'zlar: Axborot , maktabgacha ta'lim, qadriyatlar, axborot xavfsizligi, zararli axborot, pedagogik himoya.texnologiya.

Key words: Information, preschool education, values, information security, harmful information, pedagogical protection.technology. technology, preschool, interest, ability, communication, information and communication, multiplication, values, ICT.

Ключевые слова: Информация, дошкольное образование, ценности, информационная безопасность, вредная информация, педагогическая защита.технологии. технология, дошкольное

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

образование, интерес, способность, коммуникация, информация и коммуникация, умножение, ценности, ИКТ.

Kirish. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlari - ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlari nazarda to'tgan xolda, tarbiyachilarning tarbiyalanuvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy informatsion muhitning tezkor rivojlanishi inson salomatligi va ongiga ta'sir ko'rsatuvchi turli tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, axborot oqimi ichida farzandlarimizni zararli, zo'ravonlik, yolg'on yoki psixologik salbiy ta'sirga ega bo'lgan kontentdan himoyalash dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda [1]. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongining shakllanishida axborot ta'sirchanlik darajasi yuqori bo'lganligi sababli, ularni axborotdan himoyalash masalasi pedagogik yondashuv doirasida ko'rib chiqilishi lozim [2].

Qadriyatlar asosidagi tarbiya – bu nafaqat milliy o'zlik, balki axloqiy immunitetni shakllantirish vositasi hamdir. Shu bois, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni qadriyatlar ruhida tarbiyalash orqali ularni zararli axborotlardan ongli ravishda himoya qilish mumkin.

2. Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

Nazariy tahlil: mavzuga oid pedagogik va psixologik adabiyotlar asosida nazariy asoslar ishlab chiqildi.

Taqdim etilgan hujjatlar tahlili: Maktabgacha ta'lim federal standartlari, UNESCO tavsiyalari, va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari tahlil qilindi [3].

Empirik kuzatuv: Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi pedagogik amaliyotlar kuzatildi.

Tadqiqotning maqsadi – maktabgacha ta'limda tarbiyalanuvchilarni zararli axborotlardan himoya qilishda qadriyatlar asosida ishlangan pedagogik modelni asoslash va taklif qilishdir.

3. Natijalar va tahlil

3.1. Axborot xavfsizligining bolalar tarbiyasidagi o'rni

Zamonaviy bolalar media va internet resurslardan faol foydalanadi. UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, 3 yoshdan boshlab bolalar smartfon, planshetlar va televizor orqali internetga kiradi [4]. Ayni vaqtda, bu axborot vositalari orqali ularning ongiga noto'g'ri, yoshga mos bo'lmagan kontent kirib kelishi xavfi ortmoqda. Bu esa, pedagogik himoya mexanizmlarini ishga solishni taqozo etadi [5].

3.2. Qadriyatlar asosida himoya qilish yondashuvi

Qadriyatlar (axloq, milliy urf-odat, madaniy an'analar, diniy-me'yoriy qarashlar) bola shaxsiyatining negizini tashkil etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida quyidagi qadriyatlarga asoslanilgan tarbiyaviy yondashuvlar samara beradi:

Milliy ertaklar asosida axloqiy tahlil

Dramatik o'yinlar orqali xulqiy tanlovlar

Multfilm va illyustratsiyali materiallar asosida ijobiy obrazlarni targ'ib qilish

Axborotni saralash bo'yicha bolaga sodda tushuntirishlar berish

Bunday yondashuvlar bolada ijtimoiy muammolarga ongli munosabat, tanqidiy fikrlash va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi [6].

3.3. Amaliy misol: "Qahramon tanlash" mashg'uloti

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Pedagogik tajribada sinov tariqasida "Qahramon tanlash" nomli mashg'ulot o'tkazildi. Unda bolalarga ikki xil obraz (ijobiy va salbiy) taqdim etilib, qaysi biri qahramon ekanligini tanlash so'raladi. Bu orqali bolalarda axborotda ongli saralash va qadriy asosda baholash shakllanadi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, qadriyatlar asosidagi tarbiya usullari orqali bola zararli axborotni tanimasa ham, uni rad etishga moyillik bildirgan.Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi muammolari deyarli barcha mamlakatlar uchun umumiy masaladir. Yoshlar tarbiyasi mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida shunday dedi: "Bugungi dunyo yoshlari - son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda.Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bO'lib kamolga etishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olish. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya hilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. O'zbek xalqining asriy an'analari, jumladan, tarbiya sohasidagi an'analari ajdodlarimizning tabarruk dini bilan bog'liq. Yoshi kattalarga salom berish, ularni hurmat qilish, yoshi kichiklar va kuchsizlarni avaylash, ilm olish va kasb o'rganishga da'vat, halol mehnat qilishga chaqirish, qo'shnilar bilan xushmuomala bo'lish kabi an'analar ozbeklar oilalarida, ularning dinga munosabatlaridan qat'iy nazar, yoshlarga singdirib kelingan. Yoshlar tarbiyasida islom ma'rifatining muhim o'rnini e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2017-2018-yillarda qator g'oyalar va tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, Samarqand viloyatida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, Termizda Imom Termiziy ilmiy tadqiqot markazi va Toshkentda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil qilish to'g'risida davlat rahbari va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari habul qilindi.

Axborotlashtirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tayyorlov guruh xonalarini yetarlicha jihozlash, multimediya jihozlari uchun moslashtirish masalalarini hal etish, maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning AKT bo'yicha savodxonligini oshirish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bir necha yo'nalishlarda oz ifodasini topadi:

a) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan bolalar bilan bo'lgan masofaviy ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish;

b) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan masofaviy ta'limda pedagoglarning ota-onalar bilan hamkorlik jarayonida foydalanish;

c) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan metodik ishlarni tashkil etishda, ta'lim sifatini oshirishda tarbiyachilar bilan ishlash jarayonida foydalanish.

Xulosa qilib aytganda, Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, axborot kommunikatsiya texnologiyalari maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik jarayonni tashkil etishda, uzluksiz metodik xizmat ko'rsatishda, metodik faoliyatni rejalashtirishda, pedagoglar, tibbiy xodimlar va boshqa mutaxassislar faoliyatini nazorat qilishda, butun bir tizimning aniq monitoringini olib borishda qulaylik yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning zararli axborotlardan himoyalanishi faqat texnik vositalar orqali emas, balki qadriyatlar asosida olib borilgan pedagogik tarbiya orqali samarali bo'lishi mumkin. Shu bois, bolalar uchun yaratilgan barcha axborot resurslari ham qadriyatlarga mos bo'lishi, pedagoglar esa har bir mavzuda axborotni tanlashda ehtiyotkorlik bilan yondashishi lozim.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasini Presidentining Qarori PQ-3261 — "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 09.09.2017.
2. UNESCO, Montoya S. Defining literacy. GAML fifth meeting, Germany, 2018.
3. Barnett, W. Preschool education for economically disadvantaged children: Effects on reading achievement and related outcomes. In S. B. Neuman & D. K. Dickinson (Eds.), Handbook of early literacy research, Vol. 1, pp. 421-443. New York: Guilford Press,
4. To'raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. -T.;Fan, 2007.
5. www.gov.karelia.ru/Leader/Gossovet/d14.html.
6. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: 2018. -
7. 2001
8. Raxmonova G.S.Hakimova.N.S. O'quvchilarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda interfaol metodlardan foydalanish// Oriental renaissance:Innovative, educational, natural and social sciences.-2022.-T.2.-C.67-72
9. Kurbanova Z.I. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH-DOLZARB VAZIFAMIZ» //
10. O'rinova Y.T. TALABA YOSHLARNI CLIL TEXNOLOGIYASI SOHASIDA
11. CHET TILI KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH.// MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS.
12. G'aniyeva, N. Maktabgacha ta'limda axloqiy tarbiya. Samarqand. 2022.
13. Aliev, R. Psixologik immunitet va axborot tahdidlari. Andijon. 2019.
14. Normurodova, D. Multimediaviy vositalar va ularning bolalarga ta'siri. Buxoro. 2023.
15. Masharipova, Z. Bolalar ongini shakllantirishda qadriyatlarning roli. Namangan. 2024

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.